

**FUQAROLIK PROTSESSIDA ODIL SUDLOVNI AMALGA OSHIRISHGA
KO'MAKLASHUVCHI SHAXSLARNING HUQUQIY MAQOMI*****Ibragimova Rayxon Shodmon qizi,****Toshkent davlat yuridik universiteti**“Magistratura va sirtqi ta’lim” fakulteti**“Biznes huquqi” yo‘nalishi**magistratura bosqichi talabasi.**E-mail: rayxonibragimova135@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning o‘rni, huquqiy maqomi va ularning sud jarayonidagi muhim ishtiroki muhokama qilinadi. Fuqarolik protsessi doirasida ekspertlar, tarjimonlar, guvohlar, xolislar, dalil saqllovchilar va mutaxassis kabi odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning suddagi maqomi va ishtirokining asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, maqolada fuqarolik protsessida odil sudlovni ta‘minlash uchun sudga ko‘maklashuvchi shaxslarning huquqiy maqomini aniq belgilash, huquqiy mexanizmlar, malaka oshirish kurslari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarurligi ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, xalqaro tajriba asosida, sud tizimining samaradorligini oshirish uchun sudga ko‘maklashuvchi shaxslarning roli va huquqiy maqomini aniqlashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: *fuqarolik protsessi, odil sudlov, guvoh, mutaxassis, ekspertlar, tarjimonlar, dalil saqllovchilar, zamonaviy texnologiyalar.*

Inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini tan olish, ularga rioya qilish va himoya qilish davlatning asosiy vazifasi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasiga binoan, insonning huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlatning oliy maqsadi¹ sifatida e‘tirof etilgan.

Ma‘lumki, odil sudlovni amalga oshirilishi uchun barcha ma‘lumotlar sudlar tomonidan batafsil o‘rganilishi kerak. Barcha sudlovga tegishli ishlarda, xususan fuqarolik ishining adolatli ko‘rib chiqilishi, birinchi navbatda, ishning holatlarini dalil vositalaridan foydalangan holda aniqlashning to‘g‘ri tuzilgan mexanizmiga bog‘liq bo‘lib, fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslarning ishtiroki masalasi bugungi kun uchun dolzarb sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar bilan bog‘liq masalalarni huquqiy tartibga solish

¹ Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son

uchun bir qancha normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, “Fuqarolik protsessual kodeksi”², O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo‘yicha dalillar va isbotlashga oid qonun normalarini qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori³, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Birinchi instansiya sudi tomonidan fuqarolik protsessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori⁴ va boshqalar bilan huquqiy tartibga solinadi.

Nazariy jihatdan, fuqarolik protsessual jarayonda huquqiy munosabatlarga kirishuvchi subyektlar sud, ishda ishtirok etuvchi shaxslar hamda odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar guruhiga bo‘linadi. Yuridik manbalarda esa olimlar protsess ishtirokchilarini vakolat va ishtirokining maqsadidan kelib chiqqan holda ham guruhlarga ajratishadi. Misol uchun, huquqshunos olim E. Egamberdiyev fikriga ko‘ra, protsess ishtirokchilari quyidagicha :

- Fuqarolik ishini ko‘rish vakolatiga ega subyekt –sud;
- Ko‘rilayotgan ishning natijasidan bevosita manfaatdor subyektlar- da‘vogar, javobgar, uchinchi shaxslar;
- Sud va unda ishtirok etuvchilarga ko‘mak beruvchi subyektlar – guvoh, ekspert, mutaxassis, tarjimon, xolis, ijro ishlarini yuritishda saqllovchilar⁵.

Yana bir olim S.A.Yakubov esa fuqarolik protsessual munosabat ishtirokchilarini ikki guruhga ya‘ni ishda ishtirok etuvchilar va odil sudlovni amalga oshirishda ko‘mak beruvchilar⁶ kabi guruhlarga ajratadi.

Protsessual nuqtai nazardan yondashadigan bo‘lsak, Fuqarolik protsessual kodeksining 54-moddasiga binoan, guvohlar, ekspertlar, mutaxassislar, tarjimonlar, ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni saqllovchilar, ijro ishi yuritish xolislari va saqllovchilari odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslardir⁷.

Fuqarolik protsessining o‘ziga xos xususiyati shundaki, bunda faqat sudyalar emas, balki sud faoliyatiga bevosita yoki bilvosita ko‘maklashuvchi shaxslar ham odil sudlovni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shaxslar sifatida muhim o‘rin tutadi. Bunday shaxslar tarkibiga milliy qonunchiligimizga ko‘ra, tarjimonlar, ekspertlar, mutaxassislar, guvohlar, ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni saqllovchilar, ijro ishi

² Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 03/22/759/0213-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son; 26.12.2023-y., 03/23/887/0972-son; 28.02.2024-y., 03/24/915/0160-son

³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo‘yicha dalillar va isbotlashga oid qonun normalarini qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida” qarori. Toshkent sh., 2020-yil 19-dekabr, 35-son. Available at : <https://lex.uz/docs/-5185744>

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Birinchi instansiya sudi tomonidan fuqarolik protsessual qonun normalarini qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent sh., 2018-yil 19-may, 14-son. Available at: <https://lex.uz/docs/-3761338#-3761972>

⁵ Egamberdiyev.E. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar. – Toshkent: Adolat.2000. 64-bet.

⁶ Yakubov S. A. Storoni grajdanskom protsesse. – Tashkent.: Konsauditform.2006. C 6.

⁷ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.

yuritish xolislar va saqllovchilar kabi ko'maklashuvchi subyektlar kiradi. Ular odil sudlov tamoyillarini amalga oshirishda sudyaga yordam beruvchi, sud muhokamasining to'liq, har tomonlama va obyektiv o'rganilishiga xizmat qiluvchi muhim ishtirokchilardir. Shu sababdan ham, ushbu shaxslarning huquqiy maqomini alohida ta'riflarni keltirgan holda tahlil etamiz.

Guvoh subyektiga to'xtaladigan bo'lsak, ishga doir biror holatdan xabardor bo'lgan har qanday shaxs guvoh bo'la oladi.

Ekspert bu xulosa berish uchun zarur fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lgan jismoniy shaxs bo'lishi lozim.

Ekspert sifatida davlat sud-ekspertiza muassasasi eksperti, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotining eksperti, boshqa korxona, muassasa, tashkilot xodimi yoki boshqa jismoniy shaxs ishtirok etishi mumkin.

Mutaxassis sifatida sud tomonidan dalillarni to'plash, tekshirish va baholashda maslahatlar (tushuntirishlar) berish yo'li bilan ko'maklashish hamda ilmiy-texnika vositalarini qo'llashda yordam berish maqsadida fan, texnika, san'at yoki hunar sohasida maxsus bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan, ishning yakunidan manfaatdor bo'lmagan voyaga yetgan shaxs sud majlisida yoki protsessual harakatlarda ishtirok etish uchun jalb etilishi mumkin.

Mutaxassisni jalb qilish to'g'risida ishni sud muhokamasiga tayyorlash haqidagi ajrimda, sud majlisi davomida esa sud majlisining bayonnomasida ko'rsatiladi.

Tarjimon esa sud tomonidan tayinlangan tarjima qilish uchun zarur bo'lgan tillarni biladigan shaxs hisoblanadi. Sud ishlarini yuritishning boshqa ishtirokchilari tarjimon vazifalarini o'z zimmasiga olishga haqli emas.

Ashyoviy, yozma va raqamli dalillarni saqllovchilar sud ishi doirasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, keyinchalik dalil sifatida e'tirof etilishi mumkin bo'lgan ashyoviy (buyumlar, jihozlar, modda), yozma (bitimlar, arxiv hujjatlari), va raqamli (elektron fayllar, videolar, kompyuter ma'lumotlari) dalillarni vaqtinchalik yoki doimiy saqlab turuvchi subyektlardir.

Ijro ishi yuritish xolislar va saqllovchilari ijro harakatlari (masalan, mol-mulkni musodara qilish, uydan chiqarish, majburiy olib kelish) bajarilayotganda, ushbu jarayonning qonuniy va xolis o'tishini ta'minlash uchun qatnashadigan betaraf shaxslar va ijro hujjatiga muvofiq musodara qilingan yoki xatlangan mol-mulkni vaqtinchalik saqlashga qabul qiluvchi shaxs yoki tashkilotlardir (masalan, omborxona, davlat saqlash punktlari, moddiy javobgar shaxslar).

Alohida ta'kidlaydigan bo'lsak, fuqarolik ishlarida guvohlar juda muhim shaxslar hisoblanadi. Guvohlar sudga yuzaga kelgan voqealar yoki holatlar haqida guvohlik berishadi. Ularning guvohliklari sudning holatni aniq tushunishi va qaror chiqarishida asos bo'lishi mumkin. Guvohlarning huquqiy maqomi ularning

tasdiqlovchi ma'lumotlar berishdagi xolisligi, ishonchliligi va jarayonga ta'sir qilmasligiga bog'liq. Guvohlar, shuningdek, adolatli va xolis guvohlik berish majburiyatiga egadirlar. Agar guvoh yolg'on guvohlik berishga urinsa, ular protsessual javobgarlikka tortilishi mumkin.

Lord Denning, Buyuk Britaniyada fuqarolik protsessi va sudlar tizimi bo'yicha ko'plab iqtibosga olingan huquqshunoslardan biri sifatida sudning xolisligi va adolatliligi faqatgina sudyalardan emas, balki boshqa sud ishtirokchilari tomonidan ham ta'minlanadi deb fikr bildirgan. Denning, ayniqsa, guvohlarning xolisligi va o'zaro to'g'ridan-to'g'ri huquqiy munosabatlarni to'g'ri tushunishining muhimligini ta'kidlagan. Sudga ko'maklashuvchi shaxslarning mustahkam huquqiy maqomi bo'lishi, sudyalardan va boshqa ishtirokchilar uchun ishonchli va aniq ko'rsatmalar beradi deb hisoblagan⁸.

Tarjimonlar fuqarolik protsessida ayniqsa, sud jarayonida ishtirok etayotgan shaxslar orasida til to'siqlari mavjud bo'lsa, muhim o'rin tutadi, Sudyalardan va boshqa protsess ishtirokchilari uchun tarjimonlar qonuniy va aniq kommunikatsiya o'rnatishga yordam beradi. Ular shunday shaxslar bo'lib, ular protsessda ishtirok etayotgan shaxslarning huquqlari, tushunchalari va fikrlarini to'g'ri va ishonchli tarzda yetkazish uchun zarurdir. Tarjimonlarning huquqiy maqomi, ularning yuridik javobgarligini va malakasini talab qiladi. Tarjimonlar xizmatlarini taqdim etishda noto'g'ri tarjima qilish yoki ishtirokchilarni aldash holatlari uchun javobgarlik mavjuddir.

Rolf Stürner, Germaniyaning fuqarolik protsessini o'rgangan olimlaridan biri, fuqarolik protsessida sudga ko'maklashuvchi shaxslarning huquqiy maqomini huquqiy ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Uning fikricha, tarjimonlar, ekspertlar va boshqa protsessual yordamchilar fuqarolik ishida yuridik tafakkur va xolislikni ta'minlash uchun muhim o'rin tutadi. Stürner shuningdek, yuridik yordam va qonuniy himoyani taqdim etishda bu shaxslarning o'rni va protsessual kafolatlarni ta'minlash zarurligini ta'kidlaydi. U, ayniqsa, germaniya qonunchiligidagi tajribani misol keltirib, sudga ko'maklashuvchi shaxslar uchun maxsus huquqiy himoya va ta'sir doirasini belgilash zarur ekanini aytadi⁹.

Ekspertlar fuqarolik protsessida muayyan mutaxassislik sohasida professional fikr bildiradilar. Ular sudyaga murakkab texnik yoki ilmiy masalalar yuzasidan yordam ko'rsatadi. Masalan, tibbiy ekspertiza, moliyaviy audit, muhandislik tahlili kabi sohalarda ekspertlar ishtiroki zarur. Ekspertlarning huquqiy maqomi shundan iboratki, ularning xulosalari sudning qaroriga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ekspertlarning xulosalari xolis, aniq va to'g'ri bo'lishi zarur. Bunday shaxslarning faoliyati natijasida xatoliklar yoki qarorlar noto'g'ri bo'lsa, ular ham javobgarlikka tortilishi mumkin.

⁸ Lord Denning. *The Due Process of Law* // Butterworths. 1980.

⁹ Rolf Stürner. *“Zivilprozessrecht”* // Mohr Siebeck publication. 2013.

Fuqarolik protsessida mutaxassislar ham ma'lum soha bo'yicha bilim va malakaga ega bo'lishi kerak. Ular sudyaga yoki taraflarga ma'lum bir sohaga oid masalalar yuzasidan yordam beradi. Masalan, moliya, tibbiyot yoki texnik sohalar bo'yicha mutaxassislar, muayyan jarayonlarni tahlil qilib, ularning natijalarini sudga taqdim etishadi. Mutaxassislarning huquqiy maqomi, shuningdek, ular tomonidan berilgan maslahatlar va xulosalar sifatini ta'minlashga qaratilgan. Bu shaxslar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqatga to'g'ri kelmasligi, sudning adolatli bo'lmagan qaror chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Dalillarni saqlovchilar sud jarayonida to'plangan barcha turdagi dalillarni (ashyoviy, yozma, raqamli va boshqa) saqlash bilan shug'ullanadi. Dalillarni saqlash mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan shaxslar yoki tashkilotlar sudga bevosita ko'maklashuvchi shaxslardir. Ular dalillarni shikastlamaslik, o'zgartirmaslik va asliyatni buzmaslikni ta'minlaydi. Dalil saqlovchilarning huquqiy maqomi, asosan, ularning saqlash jarayonida qonuniy va xavfsiz shart-sharoitlarni yaratishda belgilangan.

Ijro ishi yuritishdagi xolislar va saqlovchilar ijro ishi jarayonida xolislar va saqlovchilar tomonidan bajariladigan faoliyat ham muhim ahamiyatga ega. Xolislar ijro jarayonining qonuniyligini ta'minlashga yordam beradi, saqlovchilar esa, mulkni yoki boshqa resurslarni ijro vaqtida shikastlanmasdan yoki yo'qolmasdan saqlashni kafolatlaydi. Bu shaxslar ijro muhokamasi va protsessining muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

Buyuk Britaniyaning huquqshunos olimi, Catherine Barnard, fuqarolik protsessida xolislik va sudning xatoliklarga yo'l qo'yimasligini ta'minlashda sudga ko'maklashuvchi shaxslarning rolini ta'kidlab, dalillarni saqlash va ehtiyotkorlik bilan tahlil qilish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Barnardning fikricha, fuqarolik sudlari o'zgarayotgan texnologiyalar va raqamli hujjatlarning ko'payishi bilan dalillarni saqlash va raqamli ekspertizaga oid yangi mexanizmlarni joriy etishi kerak. Bu o'zgarishlar esa, sud jarayonining aniqligi va samaradorligini oshiradi¹⁰.

Darhaqiqat, fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning ahamiyati fuqarolik protsessida muhim hisoblanib, ushbu shaxslarning huquq va majburiyatlari, maxsus maqomi va daxlsizligi kabi tushunchalariga aniqlik kiritish odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning protsessual ishtirokining ahamiyatini yoritish uchun xizmat qiladi.

Mavzu doirasida xulosa qiladigan bo'lsak, fuqarolik protsessida odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslarning huquqiy maqomi — sud tizimining samarali, shaffof va adolatli ishlashining muhim omilidir. Har bir ko'makchi shaxsning o'z vazifalari va mas'uliyatlari aniq belgilangan bo'lishi kerak. Tarjimonlardan tortib,

¹⁰ Catherine Barnard. The Substantive Law of the EU // Oxford University Press. 2019.

ekspertlar va guvohlar, mutaxassislar va dalil saqlovchilargacha bo'lgan barcha ishtirokchilarning faoliyati odil sudlovning ta'minlanishiga xizmat qiladi. Ularning huquqiy maqomini aniqlashtirish, nazorat va javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish fuqarolik protsessining samaradorligini oshiradi va sud tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar, xususan raqamli dalillar va onlayn protsessual yordamchilarni fuqarolik protsessida qo'llash, sud ishlarini tezlashtirishi va samaradorligini oshirishi mumkin. Dalil saqlash va ekspertiza sohasida raqamli texnologiyalarni joriy qilish fuqarolik protsessining samaradorligini oshiradi. Raqamli texnologiyalarni to'g'ri qo'llash sud jarayonining shaffofligini oshiradi va sudda ishtirok etayotgan barcha shaxslarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi.

Uchinchidan, dalillarni saqlovchilar sud jarayonida to'plangan materiallarni xavfsiz va qonuniy tarzda saqlashga mas'uldirlar. Protsessual qonunchiligimizda dalil saqlovchilarning huquqiy maqomini mustahkamlash, saqlovchilarni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash zarur. Dalil saqlovchilarni va ijro ishi yurituvchilarni maxsus yuridik kurslar bilan ta'minlash, bu sohadagi xatoliklar va suiiste'molliklarni kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi.
2. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
3. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03/22/759/0213-son; 04.08.2022-y., 03/22/786/0705-son; 27.04.2023-y.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Sudlar tomonidan fuqarolik ishlari bo'yicha dalillar va isbotlashga oid qonun normalarini qo'llash amaliyoti to'g'risida" qarori. Toshkent sh., 2020-yil 19-dekabr, 35-son. Available at : <https://lex.uz/docs/-5185744>.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Birinchi instansiya sudi tomonidan fuqarolik protsessual qonun normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori. Toshkent sh., 2018-yil 19-may, 14-son. Available at: <https://lex.uz/docs/-3761338#-3761972>.
6. Egamberdiyev.E. Fuqarolik protsessual huquqiy munosabatlar. – Toshkent: Adolat.2000.
7. Yakubov S. A. Storoni grajdanskom protsesse. – Tashkent.: Konsauditform.2006.
8. **Lord Denning.** The Due Process of Law // Butterworths. 1980.
9. Rolf Stürmer. "Zivilprozessrecht" // Mohr Siebeck publication. 2013.
10. **Catherine Barnard.** The Substantive Law of the EU // Oxford University Press. 2019.